

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“MASHINASOZLIK” fakulteti

“YER USTI TRANSPORT TIZIMLARI” kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO`YICHA

T U S H I N T I R I S H X A T I

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: Transport vositalarini aerodinamik xususiyatlarini o`rganish va ularning ko`rsatkichlari.

Bitiruvchi: "Yer usti transport tizimlari va ularni ekspluatatsiyasi"
yo`nalishi 4-kurs 079-11-guruh talabasi:

_____ **Sh.Yuldashboyev**

Fakultet dekani: _____ **N.Xalilov**

Kafedra mudiri: _____ **N.Ikromov**

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: _____ **B.Mirzayev**

Maslahatchilar: _____ **A.G`iyasiddinov**

_____ **A. Raximov**

Andijon – 2015 yil

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“MASHINASOZLIK” fakulteti

“YER USTI TRANSPORT TIZIMLARI” kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARISH BO`YICHA

T O P S H I R I Q**Yuldashboyev Shoxruxmirzo**

1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: Transport vositalarini aerodinamik xususiyatlarini o`rganish va ularning ko`rsatkichlari.

Institut bo`yicha 2014 yil 26-noyabrda 194-sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun ma`lumotlar:

Avtomobilning harakatiga havo qarshilik qilib, uni yengish uchun dvigatel quvvatining bir qismi sarf bo`ladi. Agar shamol avtomobil harakati yo`nalishiga qarshi yo`nalgan bo`lsa, havo qarshiligi yana ham kattalashadi. Havoning avtomobilga qarshiligi quyidagi sabablardan kelib chiqadi.

3. Tushintirish xatida keltiriladigan ma`lumotlar:

1) Kirish. Bu qismda talaba soha bo`yicha Respublikamizda erishilayotgan yutuqlar, transport vositalarning konstruktiv o`zgarishlari va avtomobilsozlik sanoatining rivojlanish bosqichlari to`g`risida ma`lumotlar beradi.

2) Mavzuning dolzarbligi. Bu qismda talaba mavzuni hozirgi kundagi dolzarbligi va uning kelesidagi samarasi yoritiladi.

3) Adabiyotlar sharxi. Ilmiy - texnika adabiyotlar va soha bo`yicha fan adabiyotlarining qisqacha sharxi keltiriladi.

4) Asosiy qism. Mavzuning asosiy vazifasi, umumiy tuzilishi, ishlash printsiplari kabi asosiy va nazariy ma`lumotlar keltiriladi.

5) Texnologik qism. Mavzu bo`yicha uning tayyorlanishi, qismlarga ajratilishi, ularni yig`ish jarayonlarining texnologiyalari va taklif etilayotgan konstruksiyaning loyihalari keltiriladi.

6) Iqtisodiy qism. Mavzu bo`yicha qilinayotgan loyihaning yoki konstruksiyasining iqtisodiy yechimlari keltiriladi.

7) Hayot faoliyati xavfsizligi qismi. Mavzu bo`yicha vositalarni xavfsizligini ta`minlovchi asosiy shartlar, mashina va mexanizmlarning xavfli zonalari, muhofazalovchi va saqlovchi vositalari kabi ma`lumotlar keltiriladi.

8) Xulosa va takliflar. Mavzu yuzasidan yuqorida qilingan ishlar bo`yicha umumiy xulosa va takliflar keltiriladi.

**9) Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.** Mavzuni bajarish davomida foydalanilgan adabiyotlar va internetdagi veb saytlarning ro`yhati keltiriladi.

10) Ilova. Mavzu bo'yicha maxsus jadvallar, rasmlar va internetdan olingan ma'lumotlar ilova qilinadi.

4. Bitiruv malakaviy ishining chizmalari ro'yhati:

- 1) 1-chizma. Transport vositalarining aerodinamik xususiyatlarini rivojlanish bosqichlari.
- 2) 2-chizma. Yengil avtomobillarning havo qarshiligi koefitsientlari.
- 3) 3-chizma. Avtomobildagi havoning qarshilik kuchlarini yengish elementlari.
- 4) 4-chizma. Spark M/T 1.0L DOHC 4V MPFI avtomobili misolida aerodinamik xususiyatlari grafigini qurish.

5. Bitiruv malakaviy ishi qismlari bo'yicha maslahatchilar:

№	Bitiruv malakaviy ishining qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchining familiyasi
1	Kirish	05.01.2015	12.01.2015		Mirzayev B
2	Mavzuning dolzarbligi	13.01.2015	30.01.201		Mirzayev B
3	Adabiyotlar sharxi	02.02.2015	27.02.2015		Mirzayev B
4	Asosiy qism	02.03.2015	31.03.2015		Mirzayev B
5	Texnologik qism	01.04.2015	30.04.2015		Mirzayev B
6	Iqtisodiy qism	01.05.2015	15.05.2015		
7	Hayot faoliyati xavfsizligi qismi	17.05.2015	30.05.2015		Raximov A
8	Xulosa va takliflar	01.06.2015	06.06.2015		Mirzayev B
9	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati	08.06.2015	11.06.2015		Mirzayev B
10	Ilova	10.06.2015	13.06.2015		Mirzayev B
11	1-chizma	02.03.2015	31.03.2015		Mirzayev B
12	2-chizma	01.04.2015	30.04.2015		Mirzayev B
13	3-chizma	01.05.2015	15.05.2015		Mirzayev B
14	4-chizma	17.05.2015	06.06.2015		Mirzayev B

6. Topshiriq berilgan sana: 05.01.2015 yil

7. Tugallangan bitiruv malakaviy ishini topshirish sanasi: 11.06.2015 yil

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: dots., Mirzayev B

(Imzo)

Topshiriq bajarish uchun qabul qilindi: Yuldashboyev Sh.

(Imzo)

Kafedra mudiri: t.f.n., N.A. Ikromov

(Imzo)

MUNDARIJA

I. KIRISH	5
II. MAVZUNING DOLZARBLIGI	7
III. ADABIYOTLAR SHARXI	10
IV. ASOSIY QISM	15
IV.1. Avtomobilga ta`sir etuvchi kuchlar	15
IV.2. Avtomobilning balandlikka chiqishga qarshilik kuchi va yo`lning jami qarshilik kuchi	17
IV.3. Avtomobilga havoning qarshilik kuchi	18
V. TEXNOLOGIK QISM	29
V.1. Transport vositalarining aerodinamik xususiyatlari	29
V.2. Avtomobilning tezlanishiga qarshilik kuchi (inertsia kuchi)	32
V.3. Yo`lning normal reaksiyalari	34
V.4. Avtomobilning harakat tenglamasi va uni yechish usullari	36
V.5. Transport vositalarini aerodinamik xususiyatlari hisobi	37
VI. IQTISODIY QISM	51
VI.1. Transport vositalarini aerodinamik xususiyatlari ko`rsatkichlarini iqtisodiy baholash	51
VII. HAYOTIY FAOLIYAT XAVFSIZLIGI QISMI	62
VII.1. Mashina va mexanizmlarning xavfli zonalari	62
VII.2. Xavfsizlikni ta`minlovchi texnik vositalar	63
VIII. XULOSA VA TAKLIFLAR	67
IX. ADABIYOTLAR RO`YXATI	70
X. ILOVA	72

I. KIRISH

Yuksak darajada taraqqiy etgan hozirgi zamon transportisiz rivojlangan jamiyat asosini yaratib bo'lmaydi. Chunki transport har qanday ishlab chiqaruvchi kuchlarning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Xalq xo'jaligi va qishloq xo'jaliklarida yuklarni tashishda avtomobil transportining roli beqiyosdir. Bunda tabiat boyliklarini tashishda, xo'jalikning ichki va tashqi yuk aylanishlarini bajarishda va xokazolarda transport vositalari muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari transport mehnat resurslaridan oqilona foydalanishda, davlat mudofaa qudratini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Avtomobilsozlik - mustaqil davlatimizda paydo bo'lgan eng yosh, navqiron sohadir. Uni yaratishning tashabbuskori Prezidentimiz Islom Karimovdir. Aynan u kishining shaxsan ishtiroklari va doimiy g'amxo'rliklari tufayli avtomobilsozlik sanoati mamlakatimizda misli ko'rilmagan qisqa muddatlarda yaratildi va muvaffaqiyatli rivojlanayapti. Yangi soha O'zbekiston iqtisodini ko'z oldimizda taraqqiy toptirishda qudratli lokomotivga aylandi

Prezidentimiz avtomobilsozlikni rivojlantirish va transportdan samarali foydalanish masalalariga shaxsan e'tibor berish bilan birga unga rahbarlik qilmoqda. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Vatanimizda qisqa vaqt ichida mutlaqo yangi, yuqori texnologiyali va barkamol soha – avtomobilsozlik bunyodga keldi.

Jahondagi barcha avtomobilsozlik firmalarining asosiy maqsadlaridan biri – kashf etish vaqtini qisqartirish, mos ravishda mahsulotni bozorga chiqish vaqtini tezlashtirishdir. Hozirgi vaqtda ko'pchilikda kashf etish davri 2,5 yilgacha qisqardi. Ularning barchasi loyiha ustidagi harakatlarning taqsimotida “Yakuniy natijaga zaminni loyiha uchun eng erta bosqichida qo'yiladi” degan tamoyilga asoslangan strategiyaga asoslanadi. Shundan, yangi avtomobil loyihasining hatolarini imkoniyat darajasida eng boshlang'ich bosqichlarida to'g'rilash taktikasi kelib chiqqan.

Kashfiyot jarayonini tezlatish CAD\CAE\CAM – tizimlari (elektron tizimlari) yordamida amalga oshiriladi. Ular yana oxirgi mahsulotni sifatini oshirish, avtomobil va uning alohida detallarining og'irligi (massasi) ni va shu bilan bir

vaqtda ishning hajmi va narxini kamaytirish imkonini yaratadi. Virtual modellashtirish va detal va birikmalarni optimallashtirish, issiqlik, aerodinamik, elektromagnit, vibroakustik, dinamik va statik sinovlar qoidaga aylanib qoldi. Hisoblash va modellashtirish ob`ektiga dizayn, konstruksiya, interer, yig`ish zavodlari, transport oqimi, marketing va mahsulotni sotish tarmog`i va xizmat muddati tugagach ro`yxatdan o`chirish va undan qayta foydalanish sxemasi va texnologiyasi kabilar ham kiradi [1 - 3].

Hozirgi zamonaviy kompyuter dasturlari yordamida ko`pgina tashkilotchilik va boshqarish masalalari yechilmoqda: biznes-rejalashtirish, resurslarni taqsimlash, ishlab chiqarishni tayyorlash taqvim va tarmoq grafiklari, loyihalash guruhi va tarmoqning bosqichlari bo`yicha ishlarni boshqarish.

Har xil konstruktiv yechimlar, texnologik jarayonlarni, tashkilotchilik, joylashtirish, yig`ish va transport sxemalarini kompleks modellashtirish yangi loyiha bo`yicha ishlarning boshlang`ich bosqichlarida amalga oshiriladi. Ushbularning hisobiga tayyorlanadigan va testlanadigan eksperiment va tajriba namunalarining soni anchagina kamayadi. Bulardan tashqari, jahon tajribasida loyiha ustida ishlashning samarali tajribasi shakllandi. Unda vaqtincha tarkib va funksiyali, tez moslashuvchi loyiha guruhi kuchi bilan aniq vazifa (masalan, biron-bir bozor talabini hal qilish yoki juda yangi g`oyani amalga oshirish) bajariladi.

Yetakchi avtomobilsozlik firmalarida avtomobillarning baza (asosiy) platformasi sonini kamaytirish, material va butlovchilarni bir xilligini taminlash va shu bilan birga, sotish uchun har xil opsiyali butlashni amalga oshirish an`anasi anchagina kuchaymoqda. Zamonaviy kompyuter texnologiyasi, oddiysidan qimmat bo`lmagan narxda, har xil butlangan avtomobil tayyorlash imkoniyatini yaratayotgani uchun, aniq buyurtma asosida avtomobilni yig`ish keng tarqalmoqda. Avtomobillarni uzoq muddatga kredit (nasiya)ga sotish, hamda lizing sxemalari qo`llanilmoqda. Masalan, Yevropada yangi avtomobillarning uchdan bir qismi firmalar tomonidan sotib olinmoqda. Ular olgan avtomobillarini xodimlariga ishga qatnash va shaxsiy maqsadda foydalanishga berib qo`yishni keng qo`llashmoqda.

II. MAVZUNING DOLZARBLIGI

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng mamlakatimizda ko'p sohalarda islohatlar amalga oshirilmoqda. Ularning natijasida iqtisodiyotimizda sifat o'zgarishlari ro'y berib, buni natijasida esa mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan, mamlakatimizning salohiyati, qudrati va iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga kasb etadigan navbatdagi ustuvor yo'nalish – bu asosiy yetakchi sohalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga moyil loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiyalar siyosati olib borishdan iborat.

Endilikda milliy iqtisodiyotimizning turli yo'nalishlarining tarkibiy qismlarni jahon bozori bilan qiyosiy o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti – jami sohalar, assotsiatsiyalar, korxonalar, tashkilotlarninigi yig'indisi bo'lib, ular iqtisodiy tizimga umumiy qonunlar va rivojlanish maqsadlariga asoslangan holda birlashgan [3 - 4].

Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan avtomobillarimiz jaxon bozorida o'z o'rniga ega bo'lishi uchun ularning konstruksion va ekspluatatsion ishonchliligi xalqaro standartlariga to'la javob beradigan darajada bo'lishi zarur. Avtomobilning ekspluatatsion xususiyatlari nazariyasi uni ishlatish davrida avtomobildan effektiv foydalanish usullarini va konstruksiyasining ekspluatatsiyaon talablarini qanoatlantirish darajasini harakterlab beradi. Avtomobilning ekspluatatsion xususiyatlariga tortish va tormozlash dinamikasi, yonilgi sarfining tejamliligi, boshqaruvchanlik, turg'unlik, yo'l to'siqlaridan o'ta olish xususiyati yurish ravonligi, harakat xavfsizligi, puxtaligi, remont qilishning osonligi kabi ko'rsatkichlar kiradi.

Mashinasozlik sanoat va qishloq xo'jaligining taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan texniikaviy baza yaratadi. Shunday ekan, har bir ishchi, injenerning

vazifasi zamonamiy talabga to'la javob beradigan, yuqori unumli mustahkam va foydali ish koeffitsienti yuqori bo'lgan yangidan - yangi mashinalar loyihalashda ularning detallarni mumkin qadar yengil, yetarli darajada mustahkam, ishqalanishga chidamli, shakli oddiy, ishlatilishi qulay va xavfsiz, Davlat standartlarida qo'yilgan talablarni to'la qondiradigan bo'lishiga erishish kerak. Bundan tashqari detallar ishdan chiqqanda yangisiga tez va oson almashtiriladigan bo'lishi ham zarur.

Bir qancha detallardan tuzilgan mexanizmlar majmui bo'lib, ma'lum bir ishni bajarish uchun mo'ljallangan vosita mashina deb ataladi.

Har bir mashina uch guruh mexanizmdan: harakatlanuvchi, ijro etuvchi va uzatuvchi mexanizmlardan tuzilgan.

Mashinaning bir xil materiallardan tayyorlangan va yig'ish jarayoni qo'llanilmagan qismi detal deb ataladi. Masalan, gayka bolt, shponka, prujina, va shu kabi detallar.

Mashinaning ma'lum bir vazifani bajarish uchun mo'ljallangan va yig'ish jarayoni qo'llanilib bir necha detaldan tuzilgan qismi uzel deyiladi. Reduktor, mufta, podshipnik va boshqalar uzellarga misol bo'la oladi.

Shunday detal va uzellar bo'ladiki, ular deyarli hamma turdagi mashinalarda ishlatiladi. Boltlar, gaykalar, tishli uzatmalar va boshqalar shular jumlasidandir. Bunday detallar umumiy detallar deyiladi. Faqatgina bitta mashina turidagina foydalaniladigan detallar esa maxsus detallar deb yuritiladi. Bunday detallarga "Nexia" avtomashinasi dvigateli blogi, tokarlik stanogining patroni va h.k.larni misol qilish mumkin.

Detallardan uzellardan, uzellardan esa mashina hosil qilish uchun ularni o'zaro qandaydir vosita bilan bir-biriga biriktirish zarur. Ana shunday vazifani o'taydigan biri kmalar va ularni tashkil qiluvchi qismlar guruhi o'rganiladigan detallarni birinchi turkumini tashqil etadi.

Avtomobilning ekpluatatsion xususiyatlari nazariyasi transport harakat qonunlari va ekspluatatsion xususiyatlarini o'rganuvchi fan bo'lib nazariy mexanika, mexanizm va mashinalar nazariyasi, materiallar qarshiligi kabi kurslarga asoslangan.

Nazariy izlanishlar va tajriba ma'lumotlari asosida avtomobilning ekspluatatsion xususiyatlariga ta'sir etuvchi faktorlar aniqlanib, avtomobil konstruktsiyasini yanada takomillashtirish yo'llari topildi, shu bilan birga bu fan yuk tashish protsessini optimal tashkil etish va maksimal iqtisodiy effekt olish masalalarini ham xal qildi.

Avtomobilning ekspluatatsion xususiyatlari nazariyasi uni ishlatish davrida avtomobildan effektiv foydalanish usullarini va konstruktsiyasining ekspluatatsiyaon talablarini qanoatlantirish darajasini harakterlab beradi. Avtomobilning ekspluatatsion xususiyatlariga tortish va tormozlash dinamikasi, yonilg'i sarfining tejamlliligi, boshharuvchanlik, turg'unlik, yo'l to'siqlaridan o'ta olish xususiyati yurish ravonligi, harakat xavfsizligi, puxtaligi, remont qilishning osonligi kabi ko'rsatkichlar kiradi.

Avtomobilni harakatlantiruvchi kuch – dvigateldan transmissiya orqali yetakchi g'ildiraklarga uzatilgan kuchdir. Totish dinamikasida avtomobil quvvati tirsakli valning aylanishlar chastotasiga bog'liq deb hisoblanadi. Bu vaqtda drossel-zaslonka to'la ochiq va boshqa ta'sir etuvchi faktorlar o'zgarmas deb faraz qilinadi. Ko'rsatkichlar dvigatelning tashqi tezlik harakteristikasidan o'rganiladi.

Avtomobilning harakatiga havo ham qarshilik qiladn, uni yengish uchun dvigatel quvvatining bir qismi sarf bo'ladi. Agar shamol avtomobil harakati yo'nalishiga qarshi yo'nalgan bo'lsa, havo qarshiligi yana ham kattalashadi. Havoning avtomobilga qarshiligi quyidagi sabablardan kelib chiqadi.

Avtomobil har xil kuchlar ta'sirida harakatga keladi. Bu kuchlarni ikki guruhga bo'lish mumkin: avtomobilning harakatlantiruvchi kuchlar; uning harakatiga qarshilik ko'rsatuvchi kuchlar.

Shularni e'tiborga olib men ushbu Bitiruv malakaviy ishimni **“Transport vositalarini aerodinamik xususiyatlarini o'rganish va ularning ko'rsatkichlari”** mavzusida ish olib borishni maqsad qilib oldim.

III. ADABIYOTLAR SHARXI

Bitiruv malakaviy ishimni bajarish uchun men bir nechta adabiyotlardan va manbalardan foydalandim. Quyida eng asosiy ma`lumotlar olingan adabiyotlar va manbalar hamda ulardan olingan ilmiy ma`lumotlar sharxi keltirilgan.

Q.X.Azizov “Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari” darsligida yo`l harakatini tashkil etishning asosiy tamoyillari va ularni muayyan sharoitda amalga oshirish usullari, transport va piyodalar oqimlarini tavsiflovchi ko`rsatkichlar, harakat xavfsizligini ta`minlashda transport vositalarining texnik xolatining ahamiyati, haydovchi va uning harakat xavfsizligini ta`minlashdagi o`rni, harakatni boshqarishning texnik vositalarini va yo`l harakatini tashkil etishning amaliy tadbirlari har tomonlama fan va texnika yutuqlari hamda chet el tajribalarini hisobga olgan xolda yoritib berilgan [4].

G`.N. Maxmudov “Avtomobillarni elektr va elektron jihozlari” darsligida avtomobillarning elektr va elektron jihozlarining tuzilishi, ishlash printsiplari, nazariyasining asoslari va tavsifnomalari keltirilgan. Ayniqsa hozirgi zamon avtomobillariga o`rnatilayotgan yangi elektr jihozlar: xizmat ko`rsatilmaydigan akkumulyatorlar, kontaksiz generatorlar, ichki reduktorli statorlar, raqamli va mikroprotsessorli o`t oldirish sistemalari, nazorat-o`lchov va yoritish sistemalaridagi elektron jihozlarga alohida e`tibor berilgan [5].

G`.N. Maxmudov, O.Hamraqulov “Avtomobillarni elektr va elektron jihozlari” o`quv qo`llanmaning 1-2-qismida nazorat - o`lchov asboblari va diagnostika tizimi, yoritish va habar berish tizimi, qulaylik yaratuvchi asboblarning tizimi, dvigatel va transmissiyaning avtomatik boshqarish tizimlari bo`yicha ma`lumotlar keltirilgan [6-7].

X. Mamatov “Avtomobillar” 1-qismida avtomobil mexanizmi va tarmoqlarining vazifasi, umumiy tuzilishi, ishlash uslubi hamda konstruktiv xususiyatlari hamda avtomobillarning elektr va elektron jihozlari bo`yicha asosiy ma`lumotlar bayon etilgan. Darslikning har bir bobidan so`ng, programmashtirilgan topshiriqlar berilgan bo`lib, ularning yechimlari talqin etilgan [8].

E.A. Asatov, A.A. Tojiboev “Ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari” o`quv qo`llanmasida transport vositalarining texnik holati, ishlash qobiliyati, qism va birikmalarning har xil omillar ta`sirida eskirishi, yeyilishi haqida tushuncha berilgan bo`lib, ularning ishonchliligi bayon etilgan hamda ekspluatatsiya jarayonida buyumlarni ishonchlilikka sinash va ishonchlilik xususiyatlari ko`rsatkichlarini qo`llash usullari yoritilgan. Shuningdek, transport vositalari ishonchliligini oshirish yo`lida ayrim konstruksion va ekspluatatsion choralar bo`yicha tavsiyalar berilgan. Diagnostik tashqi belgilar, parametrlar va me`yorlar, ob`ektning texnik holati ta`riflangan. Diagnostikaning umumiy jarayoni va texnik diagnostika vositalariga qo`yiladigan talabalar, transport vositalarini diagnostikalash usullari va diagnostikalash vositalari tasnifi hamda diagnostika samaradorligini baholash bo`yicha ma`lumotlar keltirilgan [9].

O.Hamraqulov, Sh.Magdiev “Avtomobillarning texnik ekspluatatsiyasi” darsligida amaliy faoliyatdagi avtomobillar texnik ekspluatatsiyasining holati. Ya`ni avtomobillarga texnik xizmat ko`rsatish va joriy ta`mirlash texnologiyasi, hamda avtotransport korxonalarida ishlab chiqarishda qo`llaniladigan texnologik jihozlar, harakatdagi tarkibga moddiy-texnik ta`minotni tashkil qilish va resurslarni tejash usullari, avtomobil transportini turli ekstremal tabiiy-iqlim va yo`l sharoitlaridagi, asosiy ishlab chiqarish bazalaridan ajralgan holdagi, hamda maxsuslashtirilgan harakatdagi tarkibning ekspluatatsiyasi, avtomobil transportining atrof-muhitga zararli ta`sirining yo`nalishlari va ularni kamaytirish yo`llari keltirilgan [10].

E.C. Kuznetsov, A.P. Boldin va boshqalar. “Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi” qayta ishlangan va to`ldirilgan ruscha 4-nashridan tarjima qilingan darslikda avtomobil transporti va texnik ekspluatatsiyasining asosiy rivojlanish yo`nalishlari, avtomobillarning texnik holati va ishlash qobiliyatini ta`minlash usullari, avtomobillarning sifat ko`rsatkichlari va ishonchliligi, avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi me`yorlarini aniqlash usullari, avtomobillarga texnik xizmat ko`rsatish va ta`mirlash ishlarini tashkil etish, avtomobil transportida moddiy-texnik ta`minot va resurslarni tejash, avtomobillar texnik ekspluatatsiyasining taraqqiyot istiqbollari keltirilgan [11].

F.V. Gurin, V.D. Klepikov, V.V. Reyn. “Avtomobilsozlik texnologiyasi” darsligi 1-kitobida avtomobil va traktor detallarini tayyorlash texnologik jarayonlarini loyihalashning asosiy qoidalari bo'yicha, asosiy tushunchalar, zagatovka turlari va ularni yasash, asos va uning turlari, kesib ishlash aniqligi, yuza sifati, kesib ishlov berish uchun qo'yim, konstruktsiyaning texnologiyabopligi, detallar zagatovkasi yuzasiga ishlov berish usullari, kesib ishlov berish moslamalari, kesib ishlash texnologik jarayonlarini loyihalash, kesib ishlash texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish kabi boblarda mavzular to'la yoritilgan [12].

A.Omirov, A.Qayumov “Mashinasozlik texnologiyasi” o'quv qo'llanmasi mashinasozlik texnologiyasi, mashina detallarining sirtlariga mexanik ishlov berish usullari, mashinalarning turdosh detallariga mexanik ishlov berishning kompleks texnologiyalari va mashinalarni yig'ish texnologiyalari qismlarida mashinalarni ishlab chiqish, mexanik ishlov berish xatoliklari va ularni hisoblash usullari, texnologik jarayonlarning unumdorligi va tejamliligi, detal yuzalariga ishlov berish, detallarga ishlov berishning zamonaviy usullari, yig'ish jarayonlarining tavsifi, va yig'ish jarayonlarini avtomatlashtirish kabi ko'plab mavzular ta'la bayon etilgan [13].

Q.H. Mahkamov, A. Ergashev “Avtomobillarni ta'mirlash” darsligi avtomobillarni ta'mirlash, avtomobillarning tubdan ta'mirlash texnologiyasi, detallarni ta'mirlash usullari, detallar, qismlar va agregatlarni ta'mirlash texnologiyasi, avtomobil korxonalarida mehnatni me'yorlash asoslari, avtomobillarni ta'mirlash korxonalarining ishlab chiqarish bo'limlarini loyihalash boblarida avtomobillarni ta'mirlashning asosiy qoidalari, avtomobil detallarini ta'mirlash jarayonlari, avtomobilning agregat va qismlarini ta'mirlash kabi mavzulari yuzasidan batafsil tushunchalar keltirilgan [14].

G'.M. Qosimov “Transport korxonalarida menejment” darsligi transport va texnika xizmati ko'rsatish korxonalarida menejmentning predmeti va tahlil usuli, boshqarish jarayonlarini tashkil etishning nazariy asoslari, boshqarish jarayonlarini tashkil etish xususiyatlari, korxonalar faoliyatini tejimli tashkil etish asoslari, avtomobil transporti xizmati ko'rsatish korxonalarining foydalanish xizmati

ko`rsatish bo`linmasida boshqarish jarayonini tashkil etish, avtomobil transporti xizmati ko`rsatish korxonalarining texnika xizmati ko`rsatish bo`linmasida boshqarish jarayonini tashkil etish, aholi avtomobillariga texnika xizmati ko`rsatish korxonalarida texnik xizmat ko`rsatish va joriy ta`mirlashni tashkil etish, transport va texnika xizmati ko`rsatish korxonalarida ish joyini tashkil etish va ularni texnologik loyihalash, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiot boyliklaridan oqilona foydalanish bo`yicha chora-tadbirlarni rejalashtirish kabi mavzular bo`yicha ma`lumotlar keltirilgan [15].

Q.H. Maxkamov, Sh.Sh. Shoobidov. "Transport vositalarining ergonomikasi va dizayni" o`quv qo`llanmasining 1-qismida Antropometriya va transport vositasi, haydovchi ishchi o`rnini tuzish, asboblarni panelini ishlab chiqish, kuzov va kabinaning ichki bo`shlig`ini tuzish kabi boblar keltirilib, bularda antropometrik tavsiflar, xirotexnika, haydovchi ishchi o`rnini joylashuvi, axborotni tasvirlovchi vositalar, o`rindiqlar, interyerni pardozlash mavzular transport vositalari misolida to`la yoritilgan [16].

Q.H. Maxkamov, Sh.Sh. Shoobidov. "Transport vositalarining ergonomikasi va dizayni" o`quv qo`llanmasining 2-qismida transport vositasining dizayni, transport vositasining xavfsizligi, transport vositasining shinamligini baholash kabi boblaridan iborat bo`lib, ushbu boblarda sanoat dizayni nazariyasi, transport vositalarining xavfsizlik talablaridan faol va passiv havfsizlik, himoya tizimlari, haydovchining toliqishi, iqlim shinamligi, titrash shinamligi, akustik (shovqin) shinamligi mavzulari to`la yoritilgan [17].

G.Yo. Yormatov, O.R. Yuldashev, A.L. Hamrayev "Hayot faoliyati xavfsizligi" darsligida ob - havo sharoiti va inson faoliyati, ishlab chiqarish muhitining ob-havo sharoiti, sanoat korxonalarida shamollatish qurilmalariga qo`yiladigan asosiy talablar, changlangan havoni tozalash qurilmalari, shovqindan saqlanish, texnika vositalarida xavf - xatarlar va ulardan muhofazalanish, elektr xavfsizligi, mehnatni muxofaza qilish qonunlari va tashkiliy asoslari va yong`inni oldini olishga qaratilgan chora - tadbirlari to`g`risida kerakli ma`lumotlar berilgan [18].

Yu.Qirg`izboyev, Z.Inog`omova, T.Rixsiboyev “Texnik chizmachilik kursi” darsligida chizmalar haqida umumiy ma`lumotlar, chiziq turlari, shriftlarning yozilish tartiboti, masshtablar, chizmalarga qirqim berish usullari, burchak shtamplarining ko`rinishi, chizmalarga o`lchamlar qo`yish usullari va shu kabi ma`lumotlar berilgan [19].

Shunindek bir qator internet saytlari orqali kerakli ilmiy texnik ma`lumotlar oldim [20-25].

P_w – havoning qarshilik kuchi;

P_{ja} – avtomobilning tezlanishga qarshilik (inertsia) kuchi.

P_f kuch g`ildirakning aylanma-ilgarilama harakatiga qarshilik momentining shu g`ildirak radiusiga bo`linganiga teng. Aylanma-ilgarilama harakatga qarshilik kuchi har bir g`ildirakda paydo bo`ladi va qulaylik uchun qiymatlari teng deb qabul qilinadi.

Avtomobilning balandlikka chiqishiga qarshilik kuchi P_i uning og`irlik markaziga qo`yilgan va avtomobil og`irligi G_a ning tashkil etuvchisi kabi aniqlanadi.

Inertsia kuchi P_{ja} avtomobilning notekis harakati natijasida hosil bo`ladi.

Havoning qarshilik kuchi P_w yo`l tekisligidan  $h_w$  balandlikka qo`yilgan. Bu kuch ta`sir etuvchi nuqta avtomobilning yelkanlik markazi deyiladi [8-9].

IV.2. Avtomobilning balandlikka chiqishga qarshilik kuchi va yo`lning jami qarshilik kuchi.

Avtomobil yo`llari asosan balandlik va pastliklardan iborat bo`lib, yo`lning qiyaligi quyidagicha ifodalanadi:

$$i = \operatorname{tg} \alpha ;$$

α —yo`lnig gorizontal tekislik bilan hosil qilgan burchagi.

Balandlikka chiquvchi avtomobilning og`irligi  $G_a$  ikki tashkil etuvchidan ya`ni yo`lga parallel $G_a \cdot \sin \alpha$ va perpendikulyar $G_a \cdot \cos \alpha$ kuchlardan iborat. Avtomobilning balandlikka chiqishga qarshilik kuchi P_i quyidagicha aniqlanadi:

$$P_i = G_a \cdot \sin \alpha. \quad (1)$$

Avtomobil balandlikka chiqayotganida P_i kuch avtomobil harakatiga qarshilik ko`rsatuvchi, pastlikka tushayotganida esa uni ilgariga itaruvchi kuch bo`ladi. Demak, qiyalik i avtomobil balandlikka harakatlenganda musbat, pastlikka harakatlanganda esa manfiy deb qabul qilinadi.

G`ildirakning gorizontal yo`lda va balandlikka chiqishdagi g`ildirashga qarshiligi birgalikda yo`lning holati, tipi va qiyaligini ifodalaydi. Bu qarshilik kuchlari yig`indisi yo`lning jami qarshilik kuchi P_ψ ni tashkil etadi:

$$P_\psi = P_f + P_i = G_a \cdot f \cdot \cos \alpha + G_a \cdot \sin \alpha = G_a \cdot (f \cdot \cos \alpha + \sin \alpha)$$

Agar yo`lning umumiy qarshilik koeffitsienti  $\psi = f \cdot \cos \alpha + \sin \alpha$  deb qabul qilinsa,  $P_\psi$  quyidagiga teng bo`ladi:

$$P_\psi = G_a \cdot \psi \quad (2)$$

Avtomobilning balandlikka chiqishga qarshilik kuchini yengishga sarflangan quvvat N_i va jami qarshilikni yengishga sarflangan quvvat N_ψ quyidagicha hisoblanadi:

$$N_i = P_i \cdot v_a / 270 = G_a \cdot v_a \cdot \sin \alpha / 270 ;$$

$$N_\psi = P_\psi \cdot v_a / 270 = G_a \cdot \psi \cdot v_a / 270, \text{ o.k.} \quad (3)$$

IV.3. Avtomobilga havoning qarshilik kuchi.

Avtomobilning harakatiga havo ham qarshilik qiladi, uni yengish uchun dvigatel quvvatining bir qismi sarf bo`ladi. Agar shamol avtomobil harakati yo`nalishiga qarshi yo`nalgan bo`lsa, havo qarshiligi yana ham kattalashadi. Havoning avtomobilga qarshiligi quyidagi sabablardan kelib chiqadi.

1) harakat davrida avtomobilning orqa va old qismida havo bosimining har xilligi natijasida peshtoqda hosil bo`ladigan qarshilik umumiy qarshilikning 55 — 60% ini tashkil etadi (2-rasm);

2) avtomobilning qanoti, zinapoyasi, nomeri va boshqalarning qarshiligi (12—18% ni tashkil etadi) (3-rasm);

3) havoning radiator orqali kapot tagidan o`tib ko`rsatadigan qarshiligi (10— 15 % ni tashkil etadi) (3-rasm);

4) avtomobil kuzovining havoga ishqalanish qarshiligi (8—10% ni tashkil etadi) (3-rasm);

5) avtomobilning yuqori va pastki qismidagi bosimning har xilligi tufayli sodir bo`ladigan qarshilik (5—8% ni tashkil etadi) (4-rasm).

Havoning qarshilik kuchi avtomobilning har xil nuqtalariga tushganligi sababli uni aniq hisoblash qiyin. Ta`sir etuvchi elementar qarshilik kuchlarining teng ta`sir etuvchisi avtomobilga havoning qarshilik kuchi P_{ω} deb ataladi. P_{ω} kuch qo`yilgan nuqtani **yelkanlik markazi** deyiladi. Bu nuqta yo`l tekisligidan h_{ω} balandlikda bo`ladi.

Avtomobilga havoning qarshilik kuchi quyidagi empirik formuladan topiladi:

$$P_{\omega} = K \cdot F \cdot v_a^2 / 13 ; \quad (4)$$


bu yerda K — havo qarshiligini yengish koeffitsienti;

F — avtomobilning old yuzasidan qaralgandagi yuzi.


Demak, havoning tezligi, v_a uning qarshilik kuchiga katta ta`sir ko`rsatadi. Agar $v_a \leq 30 — 40$ km/soat bo`lsa, formulada  $v_a$  birinchi darajada olinadi,  $150 — 180 \geq v_a \geq 30 — 40$  km/soat bo`lsa, v_a^2 va $v_a > 180$ km/soat bo`lsa,  $v_a^3$  bo`ladi.



2-rasm.




3-rasm.



4-rasm.

Havo qarshiligini yengish koeffitsienti K 1 m/s tezlik bilan harakatlanuvchi avtomobilning 1 m^2 yuzasiga havoning qarshilik kuchi bilan aniqlanadi.



5-rasm. Avtomobillarning old yuzasidan qaralgandagi maydoni.

Avtomobilning old yuzasidan qaralgandagi yuzi F deb, avtomobilning bo'ylama o'qiga perpendikulyar tekislikka tushirilgan proektsiyasiga aytiladi. Bu

yuzani aniqlash murakkab boʻlganidan uning qiymati yuk mashinalari va avtobuslar uchun quyidagicha hisoblanadi (5-rasm) :

$$F = B \cdot H_g, m^2;$$

yengil avtomobillar uchun esa

$$F = 0,78 \cdot B_g \cdot H_g, m^2;$$

bu erda: H_g — avtomobilning balandligi;

B — ikki gʻildirak orasidagi masofa (koleyasi);

B_g — avtomobilning eni.



$W = K \cdot F$ ifoda havo qarshiligini yengish faktori deyiladi.

Avtomobilga havoning qarshilik kuchini aniqlashda zarur boʻladigan koeffitsient qiymatlari 1-jadvalda berilgan.

1-jadval

Avtomobil harakatiga aerodinamik qarshilik parametrlarining taʼsiri

Avtomobillar	$K, kg \cdot c^2/m^4$	F, m^2	$W, kg \cdot c^2/m^2$
Yengil mashinalar:			
1) ochiq kuzovli	0,40 – 0,5	1,5 – 2,0	0,6 – 1
2) yopiq kuzovli	0,20 – 0,35	1,6 – 2,8	0,3 – 1
Avtobuslar (vagon tipidagi kuzovli)	0,24 – 0,40	4,5 – 6,5	1,1 – 2,6
Yuk avtomobillari:			
1) bortli kuzovga ega	0,55 – 0,60	3,0 – 5,3	2,0 – 3,2
2) furgon tipidagi kuzovga ega	0,38 – 0,45	3,5 – 8,0	1,2 – 3,6
Avtopoezdlar:			
1) ikki zvenoli	0,60 – 0,75	4,0 – 5,3	2,4 – 4,0
2) ikki zvenoli shaharlararo yuradigan	0,58 – 0,60	7,0 – 8,0	4,0 – 4,8
Poyga mashinalari	0,13 – 0,15	1,0 – 1,3	0,13 – 0,20

 $C_x = 0.85$  $C_x = 0.50$  $C_x = 0.45$  $C_x = 0.32$ 


6-rasm. Yengil avtomobillarning havo qarshiligi koeffitsientlari.

Havo qarshiligini yengish koeffitsienti K Vibeg metodi (avtomobilning yetakchi g'ildiragiga kuch ta'sir etmagandagi, ya'ni uzatmalar qutisi neytral holda bo'lgandagi harakati) yoki aerodinamik trubada avtomobil yoxud uning modelini puflash (7-rasm, a) bilan aniqlaydi.

Aerodinamik trubada tajriba o'tkazish uchun uning uchida avtomobil yoki uning modeli 4 osib qo'yiladi. Trubaning ichiga o'rnatilgan ventilyator 3 havoni yo'naltiruvchi panjara 6 orqali haydab, osib qo'yilgan modelga to'g'rilaydi. Havo oqimi modelni P_w kuch bilan o'rnidan qo'zg'atishga harakat qiladi. Tarozi 5 kuch P_w ni, anemometr 7 esa havoning tezligi v_a ni aniqlaydi. Bu ma'lumotlar bo'yicha K ning qiymati topiladi.

Aerodinamik trubada haqiqiy kattalikdagi avtomobil puflansa, juda katta o'lchamli truba, ventilyator va dvigatel kerak bo'ladi.

Shuning uchun aerodinamik trubada avtomobilning 1/5 ... 1/10 qismi kattaligidagi modeli puflanadi.




7-rasm. Avtomobilning aerodinamikasini sinash:

a - aerodinamik truba sxemasi, b - avtomobil modellarining aerodinamik trubada joylashishi.

Aerodinamik trubada avtomobil modeliga havo oqimi har tomondan, yo'l sharoitida esa avtomobilning asosan ustki va yon tomonlaridan ta'sir etadi. Shu sababli trubada bitta avtomobilni puflanganda aniqlangan K ning qiymati haqiqiy koeffitsientdan kichik bo'ladi. Bu kamchilikni yo'qotish uchun tajriba simmetrik joylashtirilgan ikkita model yordamida o'tkaziladi (7-rasm, b).

Har xil avtomobillarga havo oqimining ta'siri 8 va 9-rasmda ko'rsatilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, havo oqimining yo'nalishiga avtomobilning shakli katta ta'sir ko'rsatadi. Aniqlanishicha, aerodinamik qarshilikning kamligi bo'yicha ideal shakl tushayotgan suv tomchisiga o'xshash.

Aerodinamik qarshilik avtomobilning tortish dinamikasiga va yonilg'i tejamkorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu jihatdan avtonoezdlarning aerodinamik qarshiligini ko'rib chiqamiz.




8-rasm. Har xil tipdagi avtomobillarga havo oqimining ta'siri.

Avtopoezdga aerodinamik qarshiliklarni hosil qilishda yuqorida ayrim avtomobil uchun ko'rsatilgan faktorlardan tashqari furgon kuzovi old qismining

ta'siri, yarim pritsep kuzovi va tortuvchi avtomobil kabinasi o'rtasidagi masofa A ning ta'siri (9-rasm) va avtopoezd yonidan ta'sir etuvchi shamolning ta'siridan hosil bo'lgan aerodinamik qarshiliklar ham mavjuddir [9-10].

Bir qancha konstruktiv va ekspluatatsion faktorlarning yuk avtomobili va avtopoezdning aerodinamik qarshiligiga ta'siri tekshirib ko'riladi. Yuk avtomobili va avtopoezd komponobkasining havo qarshiligini yengish koeffitsientining K ga ta'siri 2-jadvalda ko'rsatilgan.



9-rasm. Avtopoezdga havo oqimining ta'siri.

2-jadval

№	Yuk avtomobili va avtopoezd komponovkasi	$K, kg \cdot c^2/m^4$
1.	Kabinasi dvigatelning orqasiga o`rnatilgan komponovkali va ustiga tent yopilmagan bortli platformaga ega	0,76...0,78
2.	Kabinasi dvigatelning ustiga o`rnatilgan komponovkali va ustiga tent yopilmagan bortli platformaga ega	0,75...0,88
3.	Kabinasi dvigatelning ustiga o`rnatilgan komponovkali tortuvchi avtomobil va ustiga tent yopilmagan bortli platformadan iborat avtopoezd	0,96
4.	Kabinasi dvigatelning ustiga o`rnatilgan komponovkali tortuvchi avtomobil va ustiga tent yopilgan yarim pritsepdan iborat egarli avtopoezd	0,77...1,03

2-jadvaldan ko`rinib turibdiki, tajriba o`tkazilgan hamma yuk avtomobillari va avtopoezdlar uchun K ning qiymati hisoblashlar va yuk avtomobillari uchun qabul qilingan $K = 0,65$ qiymatdan ancha katta. Xulosa qilib aytganda, yuk avtomobili va avtopoezdlarning komponovkasi va kuzovining qanday jihozlanganligi uning aerodinamik qarshiligiga katta ta`sir ko`rsatadi. Natijda, avtopoezd bu qarshilikni yengish uchun qo`shimcha yonilg`i sarf etadi.

Kabinasi dvigatel ustiga o`rnatilgan komponovkali egarli avtopoezdning 70 km/soat tezlik bilan harakatlanayotgan vaqtdagi aerodinamik qarshilikni yengish uchun sarflagan quvvati o`lchangan (3-jadval),

3-jadval

	Avtopoezd kabinasining shakli	F, m^2	$K, kg \cdot c^2/m^4$	N_w, kVt
A	Kabinaning profili yoy shaklida, ro`paradan qaralgandagi derazasi orqaga ancha og`dirilgan, yon burchaklari katta radius bilan ishlangan, yarim pritsepi ham xuddi shunday	6,95	0,77	37,5

B	Kabinasi to'g'ri to'rtburchaklik shaklida, yon burchaklari kichik radius bilan ishlangan	7,33	0,88	44
C	Refrijerator	7,8	0,94	51,5

5-jadvaldan ko'rinib turibdiki, **A** tipdagi kabinali avtopoezdning havo qarshiligini yengish koeffitsienti eng kichik, **B** tipdagi esa eng katta qiymatga ega, havo qarshiligini yengish uchun sarflangan quvvat ham ortib boradi. Bu avtopoezd kabinasi shaklining havo qarshiligini yengishga katta ta'sir etishini ko'rsatadi.

